

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

10
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 714 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., TDU rektori

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dotsent

Djumaniyazov Maqsud Allazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasida professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Musyeva Shoira Azimovna SamDu IS instituti professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Nomozova Qumri isoyevna Geologiya fanlari universiteti "Iqtisodiy geologiya" kafedrasida dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi PKQTUMOTMXHB mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.



MUNDARIJA

Qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich , professor, Zaynutdinova Umida Djalalovna , dotsent	
O'zbekiston-Turkiya do'stligi azaliy qadryatlarimiz zaminida yashab kelmoqda.....	13
O'sman Mesten , Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya-O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari	
O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishini davlat tomonidan	
qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish.....	15
Akkulov Abdulaziz Uralboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
O'zbekiston Respublikasini "Yashil" iqtisodiyotga o'tish istiqbollari. Muammolar va yechimlar.....	19
Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li , doktorant	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda "Yashil" iqtisodiyotning o'rni.....	26
Sevara Yaxshimuratova Rustam qizi , assistent-o'qituvchi	
Sanoat barqarorligini ta'minlashda yashil energetikaning o'ziga xos xususiyatlari.....	29
Kadirov Abdumalik Matkarimovich	
Republikamizda "yashil iqtisodiyot"ni shakllantirishda agroxizmatlarni	
rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari.....	36
Mirzayev Q. J. , i.f.d., professor; Jonuzokov M. K. , assistent o'qituvchi	
"Yashil" obligatsiyalarni muomalaga chiqarishning nazariy va amaliy jihatlari.....	40
E. I. Nosirov , i.f.n., dotsent	
Turizm sohasidagi loyihalarni kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	46
Matkabulova Dilorom Xalilullayevna , PhD	
Koreya Respublikasida yashil (eko) turizmning rivojlanish yo'nalishlari va muammolari.....	51
Islomova Dilrabo Salomovna , kafedra assistenti	
Moliyaviy menejment tizimini transformatsiyalashda raqamli marketing	
samaradorligini baholashning nazariy yondashuvlari.....	55
Sobirjonov Sanjar Sobirjonovich , PhD, dotsent	
Samarqand viloyati ekologik turizm salohiyatidan samarali	
foydalanish asosida ekoturizm klasterlarini shakllantirish.....	62
Abduraxmanova Aqida Fayzulla qizi , i.f.b.f.d.; Axrorov Farxod Baxriddinovich , i. f. n.; Xo'jamov Bobur , tadqiqotchi	
Ichki turizmni rivojlantirishda davlatning o'rni.....	68
Dehqonov Burxon Rustamovich , tayanch doktorant	
O'zbekistonda turizm sohasini rivojlanishiga global trendlarning ta'siri.....	72
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich , i.f.d., professor	
Assessment of the Current State of the Market and Procedure For Lending	
to Subjects of Tourism Services of the Republic of Uzbekistan.....	79
Karimova Aziza Maxomadrizoyevna , PhD, docent; Maqsudov Orif Shakirovich , assistant	
Islomiy moliya instrumentlari (muzoraba va mushoraka) va ularni tijorat banklarida qo'llash.....	84
Madraximova Gulasal , dotsent; Safarova Nasiba , magistrant	
Mamlakatimizda "Yashil" iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari.....	90
Mustafaqulov Yangiboy Bo'riqulovich , Todjimamatova Mashhura Erkinovna ;	
Nurmatova Hilola A'zamovna ; Berdieva Aziza G'anisher qizi ; Egamberdieva Oydin Abror qizi	
Ways to Improve the Green Recovery in Uzbekistan by Investment and Trade.....	97
Nurbek Khalimjonov , assistant	
Evaluating the Path Towards Sustainable Tourism Development in the Republic of Uzbekistan.....	102
Khusniddin Egamnazarov	
Nexus Between Climate Change and Energy Consumption in Uzbekistan: A Time Series Analysis.....	106
Sarvar Mamasoliyev ; Shodiyor Toxirov	
O'zbekistonda mice turizmini barqaror rivojlanishida qulay infratuzilma.....	112
Xalimova F. N. , katta o'qituvchi	
Ichki turizmni rivojlantirishning ilg'or xorijiy tajribasi va uni	
O'zbekistonda qo'llashning iqtisodiy afzalliklari.....	115
Matkarimov Jahongir Shamuratovich , mustaqil tadqiqotchi	
Agroturizmni rivojlantirish orqali hududlarning barqaror rivojlantirish imkoniyatlari.....	122
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna , kafedra dotsenti	
Turizm sektorida milliy hunarmandchilik mahsulotlarining rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	126
Xushnazarova Maxzuna Gulamdjanovna , kafedra assistenti	
Роль религиозного туризма в экономике Узбекистана.....	132
Рахимова Дилфуза Мирзакасимовна , преподаватель	
Turistik sanoatining investitsion jozibadorligini boshqarish va samaradorligini baholash.....	139
Sa'dullayeva Gulnoza Sodiq qizi , PhD	



Turizmga innovatsiyon texnologiyalarni joriy qilish shart sharoitlari	144
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li , doktorant	
O'zbekistonning "yashil iqtisodiy strategiyasi" va uni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari	147
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich , dotsent	
An Analysis of the Structure of Trade Between China and Uzbekistan	150
Cao Gang , PhD Candidate	
"Daka-Tex" MCHJ XKning marketing faolyatining takomillashtirish.....	160
Musyeva Shoirazimovna , kafedra professori	
Mamalakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda oziq-ovqat xavfsizligining o'rni.....	164
Ibragimov G'ayrat Ablalulovich , PhD; Shukurova Nilufar Qahramonova , tadqiqotchi;	
Umirov Islombek Furkatovich , tadqiqotchi; Tojiqulov Samandar Orufjon o'g'li , tadqiqotchi	
MDH davlatlarida chorva va parandachilik o'sish dinamikasi	169
Abidov Abdujabbor Abduxamidovich , t. f.n., dotsent	
Tijorat banklarida foiz stavkaning likvidlikka ta'siri	179
Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich , iqtisodiyot fanlari doktori, professor	
O'zbekiston moliya bozorini jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvining dolzarb masalalari	186
Burxanov Aktram Usmanovich , i.f.d., prof.; Xudoyqulov Xurshid Xurramovich , i.f.d., prof.	
O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishiga oid	191
Ruzibayev Jahongir Nodirovich	
O'zbekistonda ikkilamchi qimmatli qog'ozlar bozori hozirgi holati tahlili.....	194
Ro'ziqulov Abdimo'min Qussam o'g'li , mustaqil izlanuvchi	
Raqamli texnologiyalar orkali turizm industriyasini rivojlantirish usullari	200
R. P. Zarikeyev , mustaqil doktorant	
Korxona iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson resurslaridan foydalanish amaliyoti	206
Abdualimov Ashraf Qurbonaliyevich , doktorant	
Oliy ta'lim muassasalarida to'lov-kontrakt shakli mablag'lari bo'yicha xarajatlar	
va ular hisobining amaldagi holati	211
Abdujalilova Dilnoz Abdusattorovna , doktorant	
O'zbekistonda oziq-ovqat bozori nazariy tahlili.....	216
Abduraxmanova Zuxra Toxir qizi , doktorant	
Sug'urta munosabatlarini takomillashtirishning istiqbollari	221
Abduturapova Dildora Farxodjon qizi , doktorant	
Functions of Management in Education and Its Significance	231
Akhatova Shakhnoza Akram kizi , teacher	
Qishloq xo'jaligi korxonalarini moliyalashtirishni yangicha	
usullarini o'rganishning ayrim dolzarb masalalari	235
Ametov Quvondik Mamatjanovich , mustaqil izlanuvchi	
Yog'-moy sanoati korxonalari kapitali rentabelligini oshirish yo'nalishlari.....	238
Amirzoda Hamrayev , katta o'qituvchi	
Banklararo to'lov tizimini raqamli iqtisodiyotdagi rolini oshirish choralari	244
Amonov Alisher , o'qituvchi	
Baholash faoliyatini raqamlashtirish istiqbollari.....	248
Bobirjon Aktamov , katta o'qituvchi	
Marketing xizmati samaradorligini baholashda PEST tahlil usulining ahamiyati va qo'llash imkoniyatlari	253
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li , katta o'qituvchi	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarining vujudga kelish zarurati, umumiy hisobotlarining tuzilishi	
va O'zbekistonning MHXSga o'tishida vujudga keladigan muammolar va ularni bartaraf etishning istiqbolli	
yo'nalishlari	259
Djurayeva Iroda Bahrom qizi , doktorant, o'qituvchi	
Samaradorlikni korxona iqtisodiyotida tutgan o'rni	265
Fayziyeva Nilufar Shuxrat qizi , PhD, katta o'qituvchi	
Avtomobil transporti korxonalarida amortizatsiya xarajatlari va uning hisobini takomillashtirish masalalari...	269
G'anibayev Ilxomjon Shokiraliyevich , doktorant	
Turistlar statistik hisobini olib borish bo'yicha xalqaro standartlar va tajribalar tahlili	275
Jumanova Zilola To'ychiyevna , doktorant	
Tijorat banklari ipotekali kreditlarining qaytuvchanlik holatini barqarorlashtirish choralari	280
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li , kafedra o'qituvchisi	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni	
amalga oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish.....	284
M. Samiyeva , kafedra assisenti	
Assessment of the Economic Effectiveness of the Railway Transport System	288
Mannonov Shahruhmirza Abdurashidovich , independent researcher	
O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari.....	294
Nazarova Muslima Nazarovna , PhD, i.f.f.d., katta o'qituvchi	



Mamlakatimizda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	301
Odilov Dilshodjon Tulqinovich	
O'zbekistonda paxtachilik majmuasining iqtisodiy samaradorligini oshirish	307
Xoliqov Tolibjon Luptullaevich , kafedra assistenti	
Ta'lim tizimi boshqaruvida "time menejmenti" texnologiyalarini qo'llash.....	311
Radjabova Gavxar Umarovna , kafedra dotsenti	
Improving Trade Effectiveness Through Merchandising: Theory and Practice	316
Ravshan Aliyevich Allayorov , Associate Professor	
An'anaviy moliya tizimidagi yangi yondashuv va yechimlar	319
Abrorov Sirojiddin , PhD; Bunyod Usmonov , PhD	
Ijtimoiy fondlar va maqsadli jamg'armalar faoliyatini takomillashtirish.....	325
Samiyeva Gulnoza Toxirovna , PhD, i.f.f.d.	
Tikuv-trikotaj korxonalarining brend jozibadorligini marketing strategiyalari asosida oshirish.....	332
Sh. Sh. Ziyayeva , katta o'qituvchi	
Surxondaryo mintaqasining ekoturizm salohiyati nuqtayi nazaridan baholash	337
Soatov Yusuf Xo'jayor o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Совершенствование учета неиспользованных основных средств в Республике Узбекистан.....	340
Усманов Фаррух Обитжонович , научный сотрудник кафедры	
An'anaviy moliya tizimining metodologik muammolari, shuningdek moliya tizimida yuz beruvchi inqirozlar va ziddiyatli vaziyatlarning yuzaga kelish sabablari	348
Xabibullayev Dadajon Ro'ziboyevich , stajor tadqiqotchi	
Dehqon xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda tomorqa xizmati klasterlarini takomillashtirish	355
Xamrayeva Sayyora Nasimovna , kafedra professori; Ochilova Nargiza Akramovna , doktorant	
Transport xizmatlari bozorida marketing faoliyatini mexanizmlarini rivojlanishining asosiy tamoyillari	360
Nosirov Javlonbek Jamoliddin o'g'li , doktorant; Raxmatov Ziyodullo Nosirovich , dotsent	
BMT Barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida kambag'allikni qisqartirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalari.....	363
Yusupov M. S. , PhD	
Мировые финансовые центры точки роста экономики	369
Абдуллаев Анвар Фархадович , PhD., доцент кафедры	
XX asr jadid ma'rifatparvarlari Abdurahmon Toshkandiy va Abdulla Avloniy ijtimoiy qarashlaridagi umumiylik va xususiylik	375
Abrorxon Asatulloev Asatulloevich , PhD	
Математическое обоснование вычисления моды и медианы в статистике.....	379
Бердикулова Ирода Райимкуловна , старший преподаватель; Усманов Шахзод Шохрухович , студент	
Yirik soliq to'lovchi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishda soliq ma'murchiligining istiqbollari.....	390
G'aniyev Shaxriddin Vohidovich , i. f. d., Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich , PhD	
Sog'lomlashtirish turizmi klasterlari faoliyatida innovatsion faoliyatni boshqarishning kross-innovatsiyalar asosidagi modeli	395
G'ofurov Azizbek Umarjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari faoliyatidagi kredit risklarini boshqarishni takomillashtirish yullari.....	400
J. Y. Isakov , i.f.d, professor	
Mehnat bozorining raqamlashgan iqtisodiyotdagi statistik masalalari.....	405
A. Abduvohidov , i. f.d., professor	
Davlat oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini yuritish.....	407
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich , PhD	
Актуальная ситуация в сегменте теневой экономики в Республике Узбекистан.....	412
Кошанов Абдимурат , независимый исследователь	
O'zbekistonda moliyaviy hisob va hisobotni MHXSlariga transformatsiya qilishda asosiy vositalar hisobini tashkil etish masalalari	416
Qurbonova Shaxrinoz , doktorant	
Erkin iktisodiy hududlarda investitsion faollikni oshirish masalalari.....	420
Qilicheva Kamola Muzaffarovna , mustaqil tadqiqotchi	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	425
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich , erkin izlanuvchi	
Sug'urtada assistans xizmatlarini takomillashtirish	433
Maxmudov A. M.	
Цифровизация бухгалтерского учета.....	439
Мирсодикова Дилобар Дилшод кизи , самостоятельный соискатель	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishning moliyaviy mexanizmini takomillashtirish.....	445
Nasrova Kamola Ravshanovna , PhD	
Повышение эффективности депозитной политики в коммерческих банках.....	451
Нуриллаев Рахмат Ярашевич , к.с.х.н., доцент; Нуриллаев Шердил Жамолiddin угли , магистр	



Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari.....	456
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
Uy-joy fondi boshqaruvini samarali tashkil etish	460
Berdiyeva Dilfuza Axatovna , PhD, dotsent	
Экономика знаний как высший ступень развития инновационной экономики	466
Хасанхонова Нодира Исаметдиновна , PhD	
Kichik biznes subyektlarini samarali investitsiyalashning ilg'or xorijiy davlatlar tajribasi.....	471
Ruziyeva Dilobar Isomjonovna , iqtisod fanlari nomzodi	
Davlat-xususiy loyihalarining mazmun-mohiyati, ilmiy-nazariy asoslari	481
Suleymanov Farrux Raximjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Комплексный анализ хозяйственно-экономической деятельности и устойчивости АО "Узавтосаноат"	487
Туйчиев Комилжон Лазизович , доцент кафедры	
Экономическая сущность и важность повышения эффективности	
производства каракулеводческой продукции.....	493
Тулкин Хайтмуродович Фармонов , профессор; Нуриллаев Жамолiddин Ярашевич , докторант	
O'zbekistonda tijorat banklari emission operatsiyalarining dolzarb masalalari	499
O'ktamova Nozima Narzulla qizi , PhD, kafedra dotsenti	
Инновационные методы энергосбережения как способ повышения	
конкурентоспособности предприятия	503
Хамдамова Гавхар Абсаматовна , к.э.н., профессор	
Hudud sug'oriladigan yerlarida suv resurslaridan foydalanish holati tahlili	508
Shoxujayeva Zebo Safoyevna , i. f.n., professor, katta ilmiy xodim	
Hududlarning moliyaviy-investitsion salohiyatini oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini	513
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi , kafedra dotsenti i.f.d.	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xodimlar faoliyatining axborot tizimlarini samarali tashkil qilish.....	521
Yuldashev Furqat Nurilloevich , doktorant	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyoti sharoitida elektron biznesni rivojlantirish yo'llari	524
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich , PhD; Akramov G'ayrat Otabek o'g'li , talaba	
An Analysis of Green Taxation and Its Effect on Economic Growth	530
Fayzieva Nargiza Rabimovna , PhD	
Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy jihatlarini	537
Qurbonov Jasurbek Pozilovich , kafedra dotsenti	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida turizm industriyasining rivojlanishi va istiqboli	540
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich , PhD, kafedra dotsenti	
O'zbekistonda energetika korxonalari faoliyatida korporativ	
boshqaruvining baholash usullarini tahlili.....	544
Abduraxmonova Zarina Muysinjonovna , mustaqil tadqiqotchi	
O'rta Osiyo davlatlarida rekreatsiya turizmi.....	548
Shaymanova Nigora Yusupovna , doktorant	
Korxona investitsiyalari xususidagi ilmiy-nazariy yondashuvlar va qarashlar evolyutsiyasi.....	552
Eshqo'ziyev Oxunjon Oybek o'g'li , doktorant	
O'zbekiston sanoatining rivojlanish tendensiyalari, muammo va yechimlari.....	559
Shavqiyev Erkin , i. f. n.	
"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati, dastaklari va uning o'ziga xos tamoyillari	565
Berdiyev Baxtiyor Sodiqovich , kafedra dotsenti	
Innovatsion faoliyatni rivojlantiruvchi omillar va ulardan samarali foydalanish yo'nalishlari	571
Ashurov Maxammadjon Sotvoldiyevich , i.f.n., kafedra dotsenti	
Ijtimoiy tarmoqlar analitikasi.....	576
S. Qulmatova , PhD, dotsent	
Analysing the Functioning of Enterprise Management in the Context of Institutional Reforms	581
Kurpayanidi Konstantin Ivanovich , Professor	
Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi samaradorligini baholash	586
Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchi	
Soliq tushumlarini prognozlashtirish modellarini qurishning klassik va intellektual usullari	593
Narmanov Ulug'bek Abdugapparovich , PhD; Maqsudov Azamat Maqsud o'g'li	
Kompaniyani samarali boshqarishda marketingning o'rni va uning tamoyillarini qo'llash istiqbollari.....	598
Usmonova Dilfuza Ilhomovna , kafedra dotsenti	
Экономическая безопасность и факторы влияющие на неё.....	602
Абдишукуров Шерзод Шавкат угли , научный сотрудник	
Oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy manbalari bo'yicha xarajatlar hisobi va uni takomillashtirish.....	608
Artikov Kurbonazar Amonovich , mustaqil ilmiy tadqiqotchi	
Innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalarning ahamiyati.....	614
Asamxodjaeva Shoira Shukurullaevna , katta o'qituvchi	



Перспективы развития инноваций и роль стартапов: зарубежный опыт, проблемы и решения.....	618
Ачилова Ширин Шавкат кизи , старший преподаватель	
Tijorat banklari tomonidan jismoniy shaxslarni kreditlashda garov ta'minotini takomillashtirish	622
Bazarova Nigora Ravshanovna , kafedra dotsenti	
Sug'urta tashkilotlari investitsiya faoliyatini boshqarish masalalari	627
Kenjayev Ilhom G'iyozovich , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
Organizational Factors Influencing Leadership Styles and Procurement Outcomes	632
Saidakhmedov Islomjon Uligbekovich , Scientific researcher	
Tijorat banklari faoliyati samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari	637
Mirpulatova Luiza Mansurovna , doktorant	
Tijorat banklarining tadbirkorlik subyektlarini kreditlash metodologiyasining ekonometrik tahlillari.....	642
Norov Akmal Ruzimamatovich , DSc, kafedra professori	
Tijorat banklarida kreditlash amaliyotini takomillashtirish yo'llari	649
Norova Nozima Nabiyeвна , katta o'qituvchi	
Hufiyona iqtisodiyotni qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish mexanizmlari	657
Pardayev Ilhomjon G'ulom o'g'li	
Jahondagi kuzatilayotgan globallashuv va tabiatdagi o'zgarishlar oqibatida kelib chiqayotgan turli xatarlardan himoya qilishda sug'urta tashkilotlari oldida turgan vazifalar ("O'zbekinvest" EISK AJ misolida).....	661
Sayfullo Mirzoyev	
International Experiences on Restoration of Financial Stability Through Indicators in Commercial Banking Sector	666
Solijonova Muxlisa Azamatovna	
Pensiya yoshining pensiya ta'minoti tizimiga ta'siri.....	668
Tursunov Jaxongir Pulatovich , DSc	
Mamlakat iqtisodiyotini islom moliya instrumentlari orqali rivojlantirish istiqbollari.....	673
Xalikov Ulug'bek Rustamovich , PhD	
Sug'urta kompaniyalari va tijorat banklari integratsiyalashuv jarayonini zarurligi va ahamiyati.....	678
Xudoyberdiyeva Sadoqat Abdumannonova , mustaqil izlanuvchisi	
Qishloq xo'jaligi korxonalarini davlat tomonidan qo'llab quvvatlashning innovatsion menejment tamoyillari...	683
Shaniyazova Zamira Oralbeyevna , PhD	
Тенденции развития жилищного строительства.....	688
Алиева Зилола Маматвалиевна , доцент кафедры	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirishning innovatsion usullari.....	692
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'larining shakllanishi va nazorat qilinishi.....	698
Xusanov Nishonboy Abdusattarovich , filologiya fanlari doktori, professor	
Спиртные напитки - вред здоровью	702
Кариева Халима Икромжоновна , старший преподаватель кафедры	
Importance of Social Infrastructure Development in Rural Areas	706
Munisa Alimova	
Davlat xizmatida agile loyiha boshqaruvi texnologiyasidan foydalanish	709
Isaqova Zebo Murodovna , f.f.n. (PhD), tadqiqotchi	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISHIGA OID

Ruzibayev Jahongir Nodirovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq
qo'mitasi xodimi



Annotatsiya: Ushbu maqolada JSTga a'zo bo'lishning ijobiy va salbiy ta'sirlari guruhlashtirilgan, mamlakat uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar (shu jumladan, omillar) tahlil qilingan hamda zararlarni minimallashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Jahon Savdo Tashkiloti, JSTga a'zo bo'lishning ijobiy va salbiy ta'sirlari, JSTga a'zo bo'lgan qo'shni mamlakatlar iqtisodiyoti tahlili, JSTga a'zo bo'lishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlar.

Abstract: This state include in the positive and negative consequences of membership in the WTO are grouped, potential problems (in that number of factors) are analyzed for the country, and the best foreign practices are investigated to minimize the damage.

Key words: World Trade Organization, positive and negative consequences of WTO membership, analysis of the economies of neighboring WTO member countries, potential risks of WTO membership.

Аннотация: В данной статье группируются положительные и отрицательные последствия членства в ВТО, анализируются потенциальные проблемы (в том числе факторы) для страны, а также исследуются лучшие зарубежные практики по минимизации вреда.

Ключевые слова: Всемирная торговая организация, положительные и отрицательные последствия членства в ВТО, анализ экономик стран-соседей-членов ВТО, потенциальные риски членства в ВТО.

KIRISH

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan ulkan iqtisodiy islohotlar, mamlakatning investitsion muhitini shakllantirish, O'zbekiston Respublikasining xalqaro imijini yanada oshirish, shu bilan birgalikda, milliy iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlashga qaratilganligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatib bermoqda. Bois Yangi O'zbekistonning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 97-maqsadida Jahon savdo tashkiloti (keyingi o'rinlarda JST)ga a'zo bo'lish keltirib o'tilgan.

(Ma'lumot o'rnida: JST 1995-yil 1-yanvarda, xalqaro savdoni liberallashtirish va a'zo mamlakatlar savdo va siyosiy munosabatlarini tartibga solish maqsadida tashkil etilib, bugungi kunda 164 ta a'zo davlatni o'z ichiga oladi).

ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon savdo tashkiloti faoliyati va unga a'zo bo'lish masalasi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning doimiy diqqat-e'tiboridagi tadqiqot mavzularidan biridir.

Professor A. Vaxobov tomonidan JST faoliyati tahliliga doir tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, "Jahon iqtisodiyotida o'tish davri iqtisodiyoti bir xo'jalik yuritish tizimining boshqasi bilan almashish holatini ifoda etadi. Bu jarayon nisbatan uzoq davrni o'z ichiga oladi. Ushbu mamlakatlarning Jahon Savdo Tashkilotiga (JST) a'zo bo'lishi qator qiyinchiliklar va muammolar tug'dirishi bilan barobarida iqtisodiyotda raqobatdoshlik muhitini yaratish, iqtisodiy islohotlarni jadallashtirish omili bo'lib xizmat qilishi mumkin", deya ta'kidlaydi.

O'zbekistonning jahon savdo tashkilotiga qo'shilishi yuzasidan tadqiqotlar olib borayotgan N. Zufarova esa, "Iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan barcha mamlakatlarda (nafaqat sobiq sotsialistik mamlakatlar, balki XX asrning 60–70-yillarida import o'rnini to'ldiradigan sanoatlashtirish strategiyasiga amal qilgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ham) liberallashtirish sari dastlabki qadamlar bir tomonlama qarorlar qabul qilish bilan u yoki bu tarzda bog'liq bo'ldi. Islohotlarni bir tomonlama o'tkazish savdo siyosati sohasida mamlakat to'liq suverenitetini nazarda tutadi, bu esa uning nuqtayi nazaridan ko'ngildagi maqsadlarga erishishning optimal sanalgan usullarini tanlashda hukumatning "qo'lini yechib yuboradi", deb hisoblaydi.



Shuningdek, Yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga to'laqonli a'zo bo'lish O'zbekiston iqtisodiyotini liberal-lashtirish yo'lidagi ustuvor yo'nalishlardan biri ekanligi xususida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 19 sentyabr kuni Nyu-Yorkda BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqida aytib o'tdi.

Global tahdidlarga qaramasdan, mamlakat iqtisodiyoti "izchil islohotlar" tufayli "barqaror o'sish sur'atlarini namoyon etmoqda".

"So'nggi olti yilda yalpi ichki mahsulot hajmi 1,5 martadan ortiq ko'paydi. Bizning bosh maqsadimiz – 2030-yilga qadar bu ko'rsatkichni yana 2 barobarga oshirishdir", – deya ta'kidladi Prezident.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yuqorida keltirilgan tendensiyalardan kelib chiqib, JSTga a'zo bo'lishning ijobiy va salbiy ta'sirlari guruhlashtirildi, mamlakat uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar (shu jumladan, omillar) tahlil qilindi hamda zararlarni minimallashtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar o'rganib chiqildi. Olib borilgan tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

1. JSTga a'zo bo'lishning ijobiy va salbiy ta'sirlari bo'yicha.

Xususan, JSTga a'zo bo'lishda mamlakatga investitsiya hajmining va ish o'rinlarining ko'payishi, aholi to'lov qobiliyatining o'sishi, mahsulotlar sifatining oshishi hamda ularning narxi pasayishi va eng asosiysi ishlab chiqarish hajmining keskin oshishi natijasida ortiqcha qo'shilgan qiymatning hosil bo'lishi kabi ijobiy ta'sirlari aniqlandi.

Shuningdek, davlat byudjeti daromadlarining keskin qisqarishi, mahalliy ishlab chiqaruvchilar shu jumladan, qishloq xo'jaligi subyektlarining inqirozga yuz tutishi, strategik ahamiyatdagi korxonalar rentabelligining pasayishi ortidan milliy iqtisodiyotning beqarorlashuvi kabi bir qator salbiy ta'sirlari ham mavjud.

2. JSTga a'zo bo'lgan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Tojikiston respublikalari iqtisodiyoti tahlili bo'yicha.

Bundan tashqari, JSTga a'zo bo'lishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli holatlar bo'yicha Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Tojikiston respublikalari faoliyatlari tahlil qilindi (ilova qilinadi).

Xususan, Rossiya Federatsiyasi tomonidan JSTga a'zo bo'lishda mahalliy qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar hamda strategik ahamiyatdagi korxonalarga davlatning individual imtiyozlari va subsidiyalarining taqdim etilishi huquqi saqlab qolinganligi natijasida yalpi ichki mahsuloti hajmi 2,2 trln.dollarni (2011-yilda 2,0 trln.dollar yoki 109 foiz) tashkil etgan.

(Ma'lumot o'rnida: Rossiya Federatsiyasining JSTga a'zo bo'lishi 1995-yildan – 2011-yilga qadar davom etib, 2012-yil avgustga kelib yakunlangan. Bunda, RF milliy manfaatlaridan kelib chiqib, quyidagi 3 yo'nalishda o'z huquqini saqlab qolgan:

1. Sanoat sohasida davlat bojlarini 7 yilga qadar 9,5 foizdan – 7,3 foizga pasaytirish.
2. Mahalliy qishloq xo'jaligiga 1 yilda umumiy qiymati 9 mlrd.dollarga teng bo'lgan davlat subsidiyalarini ajratish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga import bojini 13,2 foizdan – 10,8 foizga pasaytirish.
3. Xizmat ko'rsatishning 155 sohasidan 30 tasida erkin raqobat qolgan 125 tasida xorijiy kompaniyalar faoliyatini cheklash.)

Shuningdek, Qozog'iston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi 37,5 foizga qisqarib 128,1 mlrd.dollarni tashkil etgan (2014-yilda 205,0 mlrd.dollar). Bundan tashqari, mazkur tendensiya Respublika makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining barcha indikatorlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

(Ma'lumot o'rnida: Qozog'iston Respublikasi 1996-yil JSTga a'zo bo'lish maqsadida ariza taqdim etgan bo'lib, 2015-yil 27-iyul kuni JSTning 162 sonli a'zosi bo'lgan. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida hukumat tomonidan qishloq xo'jaligini yalpi ichki mahsulotning 8,5 foizi miqdorida subsidiyalash huquqini saqlab qolgan. Shunga qaramasdan mamlakat tashqi savdo aylanmasi 45,8 foizga (2014-yilda 120,0 mlrd. dollar) shu jumladan, eksport 52,4 foizga qisqargan.)

Shu bilan birgalikda, Tojikiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi natijasida yalpi ichki mahsulot hajmi 19,3 foizga oshib 9,1 mlrd.dollarni tashkil qilgan (2012-yilda 7,6 mlrd.dollar, aholi jon boshiga 959 AQSh dollari). Biroq, mamlakatning tashqi tovar-aylanmasidagi eksport ulushi 25,2 foizga qisqargan. Shunga qaramasdan, Tojikiston Respublikasi JSTning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM hajmi 1000 AQSh. dollarigacha bo'lgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi sohalarini 10 yil muddatga qadar hukumat tomonidan subsidiyalash imkoniyatidan foydalanishi evaziga milliy iqtisodiyotida nisbatan barqarorlik saqlanib qolgan.

(Ma'lumot o'rnida: Tojikiston Respublikasi JSTga 11 yillik muddatdan keyin 2013-yil mart oyida 159 sonli a'zo sifatida qabul qilingan. Hukumat tomonidan milliy iqtisodiyotning 24 foizi shu jumladan, aholining 50 foizi qishloq xo'jaligi ulushiga to'g'ri kelishi ta'kidlanib, JSTdan 10 yil muddatda sohani davlat himoyasida saqlash (subsidiyasilar, imtiyozlar) huquqi olingan.)

3. O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlari bo'yicha.

JSTga a'zo bo'lgan davlatlar faoliyatining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatning tegishli sohalarini shu jumladan, strategik ahamiyatdagi korxonalarni tashkilotga a'zo bo'lishga qadar tayyorlab borish shuningdek,



a'zo bo'lganda mazkur soha va korxonalarni davlat tomonidan ma'lum bir muddatda qo'llab-quvvatlash (subsidyalash, imtiyozlar berish) muhimdir. Mazkur harakatlarni o'z vaqtida bajarmaslik mamlakat xavfsizligiga bir qator xavf-xatar uyg'otishi mumkin.

Xususan, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy bo'g'ini hisoblangan qishloq xo'jaligi sohasidagi tadbirkorlik subyektlarining inqirozga yuz tutishi. Bunda, hukumat tomonidan aholini yetarli darajada oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanmasligi bevosita mamlakat milliy xavfsizligiga tahdid sifatida baholanadi.

(Ma'lumot o'rnida: 2022-yilda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining 25,1 foizi qishloq xo'jaligi ulushiga to'g'ri kelib, aholining 27 foizi mazkur sohada bandlik bilan ta'minlangan. Shuningdek, 2022-yilda qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritib kelayotgan 38 958 ta tadbirkorlik subyekti tomonidan 4 271,0 mlrd. so'm miqdoridagi soliqlar davlat byudjetiga undirilgan. Bundan tashqari, JSTga a'zo bo'lgan XXR, Yevropa mamlakatlari hamda Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari qishloq xo'jaligi sohasida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali yuqori hosildorlikka erishganlar.)

Shu bilan birgalikda, strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalar va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning erkin bozor raqobatiga bardosh bera olmasligi o'z navbatida mazkur korxonalarning tugatilishiga yoki bankrot bo'lishiga sabab bo'ladi. Buning oqibatida esa ishsizlik sonining keskin oshishi, aholi to'lov qobiliyatining pasayishi va davlat byudjeti daromadlarining qisqarishiga sabab bo'ladi.

(Ma'lumot o'rnida: 2022-yilda 56 492 ta mahalliy ishlab chiqarish korxonalari tomonidan jami 64 569,0 mlrd. so'm (shu jumladan, foyda 24 864,7 mlrd. so'm, nedra – 11 454,3 mlrd. so'm, QQS – 9 560,2 mlrd. so'm, aksiz – 4 994,9 mlrd. so'm, JShDS – 3 906,4 mlrd. so'm va boshqa soliqlar 9 841,2 mlrd. so'm) miqdoridagi soliqlar byudjetga undirilgan. Bundan tashqari, 270 ta strategik ahamiyatga ega yirik korxonalar tomonidan 88 304 mlrd. so'm (davlat byudjeti daromadlarining 60 foizi) miqdorida soliqlar to'langan)

Shuni alohida qayd etish lozimki, JSTga a'zo bo'lishda eng yuqori xavf-xatar bu transmilliy kompaniyalarning mamlakat siyosiy faoliyatiga ta'sir o'tkaza boshlashi hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lish imkoniyatlariga qisqacha baho beradigan bo'lsak, ular so'nggi yillarda jiddiy islohotlarni boshdan kechirgan turizmni rivojlantirish, integratsiya imkoniyatlarini oshirish, tarifsiz cheklavlarni qisqartirish, iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar ulushini oshirish, investitsiyalar hajmini pasaytirishda namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti vakillari bilan muzokaralari yana ikki-uch yil davom etishi mumkin. A'zolik masalasi osonlikcha hal bo'lmaydi, oldinda qiyin bosqichlar turibdi. Muzokaralar mavzulari va muammolarining doirasi shunchalik kengki, ulardan birini yo'qotish yangi muammoga olib kelishi mumkin.

Yuqorida keltirib o'tilganlarni shuningdek, JSTga a'zo bo'lish O'zbekiston Respublikasi oldidagi eng dolzarb masala ekanligini inobatga olgan holda, tashkilotga a'zo bo'lishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni bartaraf etish yuzasidan quyidagi yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar hamda strategik ahamiyatga ega bo'lgan korxonalarning texnik va texnologik salohiyatini modernizatsiyalash hisobiga raqobatbardoshligini oshirish. Bunda, modernizatsiya hisobiga rentabellik ko'rsatkichlarini kamida 2 barobarga oshirgan korxonalarga soliq imtiyozlarini taqdim etish hamda aksincha modernizatsiya qilmasdan faoliyat yuritayotganlarga karrali soliq hisoblash mexanizmini joriy etish.
2. Qishloq xo'jaligi sohasida faoliyat yuritayotgan subyektlar tomonidan zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali sarf-xarajatlarni kamaytirish hamda unumdorlikni oshirishni nazarda tutuvchi davlat dasturini ishlab chiqish.
3. JST bilan intensiv muzokaralarni olib borish hamda tashkilotga a'zo bo'lishda O'zbekiston Respublikasining mahalliy ishlab chiqaruvchilar va qishloq xo'jaligi sohasiga 7 yil muddatda davlat byudjetidan subsidiyalar hamda imtiyozlar ajratilishi huquqini saqlab qolish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. M. JSTga to'laqonli a'zo bo'lish – O'zbekistonning ustuvor yo'nalishlaridan biri, 2023-yil 19-sentyabr Nyu-Yorkda BMT Bosh assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqidan.
2. Vaxobov A. O'tish iqtisodiyoti mamlakatlarining jahon savdo tashkilotiga kirish tajribasi: yo'qotishlar va afzalliklar.: Xalqaro iqtisodiyot va iqtisodiy munosabatlar, 2020.
3. JSTga a'zo bo'lish uchun O'zbekistonning iqtisodiy tizimi xalqaro me'yorlar va standartlarga moslashtirilishi kerak – [Elektronnyy resurs]/ Rejim dostupa: <https://kun.uz/news/2023/09/19/li-tayeho>.
5. JST va O'zbekiston– [Elektronnyy resurs]/ Rejim dostupa: <https://yuz.uz/news/jst-va-uz>
6. Бродко И. Вступление в ВТО: плюсы и минусы – [Электронныйресурс] / Режим доступа : <https://cyberleninka.ru/>
7. www.wto.org

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining

2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

